ISSN:3030-332X
Impact factor: 9,493
International journal of scientific researchers

O‘ZBEKISTONDA KREATIV IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISHNING INSTITUTSIONAL ASOSLARI VA ISTIQBOLLARI

Djurayeva Nasiba Rustamovna
O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi
Biznes va tadbirkorlik oliy maktabi
Buxoro viloyati hududiy filiali bosh mutaxassisi
https://doi.org/10.5281/zenodo.21807630

Annotatsiya

Mazkur maqolada zamonaviy iqtisodiyotning yangi va istiqbolli yo‘nalishlaridan biri bo‘lgan kreativ iqtisodiyotning shakllanishi va O‘zbekistonda rivojlanish jarayonlari tahlil qilingan. Tadqiqotda kreativ iqtisodiyotning nazariy asoslari, xalqaro tajribasi hamda mamlakatda ushbu sohani qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan huquqiy va institutsional islohotlar yoritilgan. Shuningdek, kreativ industriya infratuzilmasi, hududiy kreativ klasterlarni rivojlantirish imkoniyatlari va sohaning iqtisodiy o‘sishga ta’siri baholangan. Tadqiqot natijasida kreativ iqtisodiyotning mamlakat iqtisodiyotini diversifikatsiya qilish, innovatsion faoliyatni rag‘batlantirish va yangi ish o‘rinlari yaratishdagi ahamiyati asoslab berilgan.

Kalit so‘zlar: kreativ iqtisodiyot, kreativ industriya, kreativ klaster, innovatsiya, intellektual kapital, ijodiy tadbirkorlik, raqamli iqtisodiyot, iqtisodiy diversifikatsiya.

Annotation

This article explores the development of the creative economy as one of the most promising directions of the modern economic system and analyzes its formation in Uzbekistan. The study examines the theoretical foundations of the creative economy, international experience, and ongoing legal and institutional reforms supporting this sector. Special attention is given to creative industry infrastructure, the formation of regional creative clusters, and the impact of the sector on economic growth. The study highlights the role of the creative economy in economic diversification, innovation development, and the creation of new employment opportunities.

Keywords: creative economy, creative industries, creative clusters, innovation, intellectual capital, creative entrepreneurship, digital economy, economic diversification.

Аннотация

В статье рассматривается развитие креативной экономики как одного из перспективных направлений современной экономической системы, а также анализируются особенности её становления в Узбекистане. Исследованы теоретические основы креативной экономики, международный опыт и проводимые в стране правовые и институциональные преобразования. Особое внимание уделено развитию инфраструктуры креативных индустрий, формированию региональных кластеров и влиянию данной сферы на экономический рост. Обосновано значение креативной экономики в диверсификации экономики, стимулировании инновационной деятельности и создании новых рабочих мест.

Ключевые слова: креативная экономика, креативная индустрия, креативный кластер, инновации, интеллектуальный капитал, креативное предпринимательство, цифровая экономика, экономическая диверсификация.

KIRISH

So’nggi yillarda dunyo iqtisodiyotida an’anaviy sanoat va xizmat sohalari qatorida yangi yo’nalish — kreativ iqtisodiyot tobora katta o’rin egallamoqda. “Kreativ iqtisodiyot”–bu barcha tarmoqlarda g‘oyadan daromad olishga asoslangan faoliyat turi hisoblanadi. Uning asosiy yo‘nalishi kreativ industriyadir. “Kreativ iqtisodiyot” barqaror iqtisodiy o’sishga ko’maklashuvchi biznesning tez rivojlanayotgan sohasi hisoblanadi. Bu soha dizayn, arxitektura, kino, musiqa, raqamli o’yinlar, moda va

boshqa ijodiy faoliyat turlarini birlashtirib, insonning bilim va tasavvurini bevosita daromadga aylantiradi.

O‘zbekistonda kreativ iqtisodiyotni rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida e’tirof etilib, mazkur sohani institutsional va huquqiy jihatdan qo‘llab-quvvatlashga alohida e’tibor qaratilmoqda. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan 2024-yil 3-oktabrda “Kreativ iqtisodiyot to‘g‘risida”gi Qonunning qabul qilinishi ushbu sohaning huquqiy asoslarini shakllantirish va uni izchil rivojlantirish uchun mustahkam normativ-huquqiy poydevor yaratdi. Mazkur qonunning mantiqiy davomi sifatida 2026-yil 16-fevralda Prezidentning PQ–64-son qarori qabul qilinib, unda 2030-yilgacha kreativ iqtisodiyotni rivojlantirishning strategik maqsad va ustuvor yo‘nalishlari belgilab berildi [1, 2]. Xususan, qarorga muvofiq, kreativ iqtisodiyotning yalpi ichki mahsulotdagi ulushini 5 foizga, ya’ni 145 trillion so‘mga yetkazish, kreativ mahsulot va xizmatlar eksporti hajmini 1 milliard AQSH dollaridan oshirish hamda soha doirasida 500 mingta yangi ish o‘rni yaratish kabi muhim maqsadli ko‘rsatkichlar belgilangan [2]. Ushbu vazifalar kreativ iqtisodiyotning mamlakat iqtisodiy o‘sishini jadallashtirish, eksport salohiyatini oshirish va aholi bandligini ta’minlashdagi strategik ahamiyatini yaqqol namoyon etadi.

Davlat rahbari tashabbusi bilan kreativ iqtisodiyot infratuzilmasini rivojlantirish maqsadida Toshkent shahrida Kreativ industriya parkini tashkil etish, shuningdek Samarqand, Buxoro va Xiva shaharlarida hududiy kreativ klasterlarni barpo etish rejalashtirilgan [2]. Mazkur tashabbuslar kreativ faoliyat subyektlari uchun zamonaviy innovatsion muhitni shakllantirish, hududlarning ijodiy va iqtisodiy salohiyatidan samarali foydalanish hamda kreativ industriya ekotizimini izchil rivojlantirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, ushbu chora-tadbirlar mamlakat iqtisodiyotini diversifikatsiya qilish, yosh ijodkorlar va innovatsion tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash, yuqori qo‘shilgan qiymatga ega mahsulot va xizmatlar ishlab chiqarishni rag‘batlantirish hamda intellektual mulk huquqlarini ishonchli himoya qilishga qaratilgan davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida namoyon bo‘lmoqda.

ADABIYOTLAR TAHLILI

"Kreativ iqtisodiyot" (creative economy) atamasi XX asr oxiri va XXI asr boshlarida bilimlar iqtisodiyoti hamda kreativ industriyalarning jadal rivojlanishi natijasida ilmiy va siyosiy muomalaga kirib keldi. Ushbu tushuncha ilk bor 2001-yilda britaniyalik iqtisodchi va media tadqiqotchisi John Howkins tomonidan nashr etilgan The Creative Economy: How People Make Money from Ideas asarida tizimli ravishda asoslab berilgan [3]. Muallif kreativ iqtisodiyotni insonning ijodiy salohiyati, bilim va intellektual mulk obyektlari asosida iqtisodiy qiymat yaratuvchi faoliyatlar majmui sifatida talqin qiladi. Uning ta'kidlashicha, kreativ iqtisodiyotda asosiy ishlab chiqarish omili moddiy resurslar emas, balki g'oyalar, innovatsiyalar va intellektual kapital hisoblanadi [3].

Keyinchalik ushbu konsepsiya United Nations Conference on Trade and Development tomonidan yanada rivojlantirildi. UNCTADning 2008-yilda e'lon qilingan Creative Economy Report hisobotida kreativ iqtisodiyot quyidagicha ta'riflanadi: kreativ iqtisodiyot – ijodkorlik, madaniyat, iqtisodiyot va texnologiyalar kesishmasida shakllanadigan, intellektual kapitalga asoslangan hamda iqtisodiy o'sish, bandlik, eksport va ijtimoiy inklyuziyaga xizmat qiluvchi faoliyatlar tizimidir [4]. Mazkur yondashuv xalqaro miqyosda eng ko'p qo'llaniladigan ta'riflardan biri hisoblanadi.

Ilmiy adabiyotlarda kreativ iqtisodiyot nazariyasining shakllanishiga Richard Florida ham muhim hissa qo'shgan. U 2002-yilda chop etilgan The Rise of the Creative Class asarida iqtisodiy rivojlanishning asosiy omili sifatida "kreativ sinf" konsepsiyasini ilgari surib, innovatsion iqtisodiyotning rivojlanishi bevosita ijodkor inson kapitaliga bog'liqligini ilmiy jihatdan asoslab berdi [5].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda quyidagi usullardan foydalanildi: normativ-huquqiy hujjatlarni tahlil qilish usuli (Qonun va PQ-64-son qaror matnlari asosida); qiyosiy tahlil usuli (O’zbekiston ko’rsatkichlarini UNCTAD jahon statistikasi bilan solishtirish); tizimli yondashuv (huquqiy, moliyaviy va infratuzilma tarkibiy qismlarini birgalikda ko’rib chiqish). Asosiy manba sifatida O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 16-fevraldagi PQ-64-son qarori [2] va uning ilovalarida keltirilgan rasmiy ko’rsatkichlar, muddatlar va

mas’ul tashkilotlar ro’yxati olindi. Xalqaro solishtirma ma’lumotlar UNCTAD ning 2024-yilgi rasmiy hisobotidan foydalanildi [3; 4].


TAHLIL VA NATIJALAR

Kreativ iqtisodiyotni rivojlantirish bo‘yicha belgilangan strategik maqsadlarning samaradorligini baholashda ularni xalqaro tajriba bilan qiyosiy tahlil qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Bunday yondashuv O‘zbekiston oldiga qo‘yilgan maqsadli ko‘rsatkichlarning amaliy asoslanganligini baholash hamda ularning jahon amaliyotidagi tendensiyalarga qanchalik mos kelishini aniqlash imkonini beradi. Shu nuqtai nazardan, PQ–64-son qarorga muvofiq 2030-yilgacha kreativ iqtisodiyotni rivojlantirish bo‘yicha belgilangan asosiy maqsadli ko‘rsatkichlar jahon amaliyoti bilan taqqoslandi (1-jadval).

1-jadval. O’zbekiston maqsadli ko’rsatkichlarining jahon amaliyoti bilan solishtirmasi

Ko’rsatkich	O’zbekiston uchun 2030-yil maqsadi	Jahon amaliyoti (UNCTAD, 2024)
Kreativ iqtisodiyotning YaIMdagi ulushi	5 foiz (145 trln so’m)	Turli davlatlarda 0,5–7,3 foizni tashkil etadi
Kreativ mahsulot va xizmatlar eksporti	1 mlrd AQSH dollaridan ortiq	Jahonda xizmatlar eksporti 1,7 trln, tovarlar 709 mlrd dollar (2024)
Soha loyihalari doirasidagi ish o’rinlari	500 ming	Band aholining 0,5–12,5 foizi turli mamlakatlarda

Jadvaldan ko’rinib turibdiki, O’zbekiston uchun belgilangan 5 foizlik YaIM ulushi maqsadi UNCTAD statistikasidagi yuqori chegaraga (7,3 foiz) yaqinlashishga qaratilgan bo’lib, bu yetarlicha yuqori — ammo real — maqsad hisoblanadi. Eksport bo’yicha 1 milliard dollarlik ko’rsatkich global miqyosdagi trillion dollarlik bozorga nisbatan kichik bo’lsada, mamlakat uchun boshlang’ich bosqichda muhim sifat o’zgarishini anglatadi.



1-diagramma. 2030-yilga qadar belgilangan maqsadli ko’rsatkichlar

Qaror doirasida belgilangan tashkiliy chora-tadbirlar ikkita asosiy yo‘nalish bo‘yicha amalga oshirilishi ko‘zda tutilgan. Birinchi yo‘nalish — kreativ iqtisodiyot infratuzilmasini shakllantirish bo‘lib, uning doirasida Toshkent shahrining Shayxontohur tumanida Kreativ industriya parkini tashkil etish rejalashtirilgan. Mazkur majmua tarkibida yashil hududlar, raqamli dizayn maktabi, koinnovatorlar uchun zamonaviy ustaxonalar, kino va ovoz yozish studiyalarini joylashtirish nazarda tutilgan [2]. Ikkinchi yo‘nalish — hududiy kreativ klasterlarni rivojlantirishdan iborat bo‘lib, Samarqand, Buxoro va Xiva shaharlarida tarixiy-madaniy meros obyektlari negizida kreativ industriya klasterlarini tashkil etish ko‘zda tutilmoqda (2-jadval). Mazkur yondashuv kreativ faoliyatni faqat poytaxt miqyosida emas, balki hududlar kesimida ham rivojlantirish, mahalliy ijodiy salohiyatdan samarali foydalanish hamda

mintaqalarning iqtisodiy va madaniy resurslarini innovatsion faoliyat bilan uyg‘unlashtirish imkonini beradi.

2-jadval. Hududiy kreativ industriya klasterlari

Shahar	Kreativ industriya klasteri tashkil etiladigan hudud
Samarqand	Registon maydoni (Ulug’bek, Sherdor, Tillakori madrasalari)
Buxoro	Xalqaro zamonaviy san’at biennalesi doirasidagi hudud
Xiva	Ichan-qal’a majmuasi

Moliyalashtirish manbalari tahlili shuni ko’rsatadiki, davlat Kreativ industriya parki direkciyasi faoliyatini faqat byudjet mablag’lari hisobidan emas, balki rezidentlarning a’zolik badallari, xususiy investitsiyalar, grantlar va xayriya mablag’lari orqali ham ta’minlashni maqsad qilingan [2]. Bu — davlat-xususiy sheriklik tamoyiliga asoslangan barqaror moliyalashtirish modeli bo’lib, xalqaro tajribada ham keng qo’llaniladigan usuldir [3].

Shuningdek, qarorda soliq va bojxona yengilliklari ham nazarda tutilgan: chet ellik kontragentlar 2030-yil 1-yanvarga qadar soliqlardan ozod etiladi, mahalliy ishlab chiqarilmaydigan xomashyo va uskunalar esa uch yil muddatga bojxona bojidan ozod qilinadi [2]. Bunday yengilliklar sohaga xorijiy va mahalliy investitsiyalarni jalb qilish uchun qulay muhit yaratadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O‘tkazilgan tahlillar shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekistonda kreativ iqtisodiyotni rivojlantirish bo‘yicha so‘nggi yillarda izchil huquqiy, tashkiliy va institutsional asoslar shakllantirildi. Mazkur jarayon mamlakatda kreativ industriya subyektlarini qo‘llab-quvvatlash, innovatsion faoliyatni rag‘batlantirish hamda sohaning iqtisodiy rivojlanishdagi o‘rnini mustahkamlash uchun zarur shart-sharoitlarni yaratmoqda. Qabul qilingan strategik hujjatlar asosida belgilangan vazifalar xalqaro tajriba bilan uyg‘un bo‘lib, kreativ iqtisodiyotni barqaror rivojlantirish va uning iqtisodiyotdagi hissasini oshirish uchun muhim omil sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Kreativ iqtisodiyotning uzoq muddatli va barqaror rivojlanishini ta’minlash maqsadida quyidagi yo‘nalishlarda chora-tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq:

1. kreativ industriya uchun malakali kadrlar tayyorlash va qayta tayyorlash tizimini takomillashtirish, bunda raqamli dizayn, dasturlash, media va boshqa zamonaviy kreativ yo‘nalishlar bo‘yicha xalqaro standartlarga mos ta’lim dasturlarini joriy etish;
2. intellektual mulk huquqlarini himoya qilish mexanizmlarini takomillashtirish hamda ijodiy mahsulotlarni tijoratlashtirish va monetizatsiya qilish imkoniyatlarini kengaytirish, bu esa ijodkorlarning iqtisodiy manfaatdorligini oshirishga xizmat qiladi;
3. kreativ industriya subyektlari va ularning iqtisodiy faoliyati bo‘yicha alohida statistik hisob va monitoring tizimini shakllantirish, natijada sohaning yalpi ichki mahsulotdagi haqiqiy ulushini aniq baholash imkoniyati yaratiladi;
4. hududiy kreativ klasterlar tarmog‘ini bosqichma-bosqich kengaytirish, bunda Samarqand, Buxoro va Xiva shaharlari tajribasidan foydalanib, boshqa hududlarning ham ijodiy va madaniy salohiyatini iqtisodiy faoliyatga jalb etish;
5. kichik va o‘rta biznes subyektlari faoliyatida kreativ yo‘nalishlarni rivojlantirish, ularni xalqaro bozorlarga olib chiqishga qaratilgan maslahat xizmatlari, moliyaviy ko‘mak va grant dasturlarini kengaytirish.

Umuman olganda, kreativ iqtisodiyot O‘zbekiston uchun nafaqat madaniy rivojlanish, balki yuqori qo‘shilgan qiymat yaratishga xizmat qiluvchi muhim iqtisodiy yo‘nalishlardan biridir. Mazkur sohani tizimli va innovatsion yondashuvlar asosida rivojlantirish mamlakat iqtisodiyotini diversifikatsiya qilish, eksport salohiyatini oshirish hamda yangi ish o‘rinlarini yaratishda muhim strategik omil bo‘lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasining «Kreativ iqtisodiyot to‘g‘risida»gi Qonuni: O‘RQ-970-son, 03.10.2024 y. // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi. – Toshkent, 2024.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Kreativ iqtisodiyotni rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi qarori: PQ-64-son, 16.02.2026 y. – Toshkent, 2026. – 12 b.
3. Howkins J. The Creative Economy: How People Make Money from Ideas. – London: Penguin Books, 2001.
4. United Nations Conference on Trade and Development (UNCTAD). Creative Economy Report 2008: The Challenge of Assessing the Creative Economy: Towards Informed Policy-making. – New York; Geneva: United Nations, 2008.
5. Florida R. The Rise of the Creative Class: And How It's Transforming Work, Leisure, Community and Everyday Life. – New York: Basic Books, 2002.
6. Toshkentda Kreativ iqtisodiyot bo‘yicha jahon konferensiyasi o‘tkaziladi [Elektron resurs] // NORMA.UZ
7. Toshkentda kreativ industriya parki tashkil etiladi [Elektron resurs] // Sputnik O‘zbekiston. – 2026. – 13 fevral